



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
V-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
V-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
<b>I. R. Berdikulova</b>	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
<b>Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li</b>	
<b>Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
<b>Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ .....	38
<b>Абдуллаева М.Б.</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
<b>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
<b>Niyozov Zuxur Davronovich</b>	
<b>Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО .....	58
<b>Худойкулова Дилора Дилмуродовна</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
<b>Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi</b>	
XALQARO MOLİYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
<b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	77
<b>Karimova Dilafruz Sadridin qizi</b>	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
<b>Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI .....	89
<b>Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
<b>Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi</b>	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI .....	94
<b>Otarbayev Zamir Zairovich</b>	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	100
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
<b>Хо'jamov Akbar Bahriddinovich</b>	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
<b>Djumayev Askar Xaydarovich</b>	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
<b>Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li</b>	
<b>Qahhorova Nargiza Qahramonovna</b>	
<b>Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li</b>	
<b>Jamilov Firdavs Otabek o'g'li</b>	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ .....	129
<b>Норкулов Хабибулло</b>	
<b>Абдурасулова Шахзода</b>	
<b>Бахриддинов Дилшодбек</b>	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV .....	135
<b>Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	138
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ .....	147
<b>Джуманов А.А.</b>	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
<b>Masharipova Durdona Ulug'bekovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
<b>Джуманов А.А.</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
<b>Rahmanov Furqat Temirovich</b>	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	179
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH .....	186
<b>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI.....	192
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI .....	198
<b>Boboqulov Sanjar Baxronkulovich</b>	
<b>Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li</b>	
<b>Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li</b>	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI .....	204
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	210
<b>Курбанова Дилфуза Махсудовна</b>	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	217
<b>Karimova Feruza Xamidullayevna</b>	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
<b>Ishniyazov Zoxid Normamatovich</b>	
FUQAROLAR MUROJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	226
<b>Inomov Daniyar Valijonovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
<b>Niyozov Zuhur Davronovich</b>	
<b>Xolmurotov Sardor</b>	
<b>Haydaraliyev Avaz</b>	



# O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR

**Niyozov Zuhur Davronovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i.f.n., "Bank ishi" kafedrası professori v.b.

**Xolmurotov Sardor**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Bank ishi va audit yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Haydaraliyev Avaz**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Bank ishi va audit yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning 2020–2025-yillardagi rivojlanish dinamikasi empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda qimmatli qog'ozlar portfelining o'sishi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik baholanib, broker-dilerlik faoliyati, anderryayting xizmatlari hamda investitsion portfelni boshqarishning amaldagi holati yoritilgan. Olingan natijalar asosida institutsional islohotlar, raqamli modernizatsiya va risk-menejment tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar portfeli yalpi ichki mahsulot o'sishiga nisbatan 1,5 barobar tezroq rivojlanmoqda, bu esa moliyaviy chuqurlashuv jarayonining jadallashayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ikkilamchi bozor likvidligini oshirish, derivativlar bozorini bosqichma-bosqich rivojlantirish va institutsional investorlar bazasini kengaytirish muhim vazifalar sifatida belgilandi.

**Kalit so'zlar:** qimmatli qog'ozlar, tijorat banklari, investitsion portfel, broker-dilerlik faoliyati, anderryayting, risk-menejment, kapital bozori, O'zbekiston.

**Annotation.** This article empirically analyzes the development dynamics of securities operations in commercial banks of Uzbekistan during 2020–2025. The study assesses the correlation between the growth of securities portfolios and macroeconomic indicators, while also examining the current state of brokerage and dealer activities, underwriting services, and investment portfolio management. Based on the findings, comprehensive recommendations are developed for institutional reform, digital modernization, and improvement of the risk management system. The results show that securities portfolios are growing 1.5 times faster than gross domestic product, indicating an intensification of financial deepening. At the same time, low liquidity in the secondary market, the underdevelopment of the derivatives market, and the insufficient formation of the institutional investor base are identified as the main limiting factors.

**Keywords:** securities, commercial banks, investment portfolio, brokerage and dealer activities, underwriting, risk management, capital market, Uzbekistan.

**Аннотация.** В данной статье эмпирически проанализирована динамика развития операций с ценными бумагами в коммерческих банках Узбекистана за 2020–2025-годы. В исследовании оценена корреляционная взаимосвязь между ростом портфеля ценных бумаг и макроэкономическими показателями, а также раскрыто текущее состояние брокерско-дилерской деятельности, андеррайтинговых услуг и управления инвестиционным портфелем. На основе полученных результатов разработаны комплексные рекомендации по институциональным реформам, цифровой модернизации и совершенствованию системы риск-менеджмента. Результаты исследования показывают, что портфель ценных бумаг развивается в 1,5 раза быстрее роста валового внутреннего продукта, что свидетельствует об ускорении процесса финансового углубления. Вместе с тем низкая ликвидность вторичного рынка, недостаточное развитие рынка деривативов и неполная сформированность базы институциональных инвесторов определены как основные сдерживающие факторы.

**Ключевые слова:** ценные бумаги, коммерческие банки, инвестиционный портфель, брокерско-дилерская деятельность, андеррайтинг, риск-менеджмент, рынок капитала, Узбекистан.



## KIRISH

Zamonaviy moliyaviy tizimda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida bank sektori nafaqat an'anaviy kredit-depozit operatsiyalari, balki qimmatli qog'ozlar emissiyasi, investitsion portfelni boshqarish hamda broker-dilerlik xizmatlari orqali ham iqtisodiy rivojlanishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yilgi valyuta liberalizatsiyasidan so'ng amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida moliya bozori rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-iyuldagi PF-5785-son Farmoni hamda 2023-yildagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi kapital bozorini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi. Mazkur hujjatlar doirasida 2026-yilga borib fond bozori kapitalizatsiyasini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10 foizga yetkazish hamda tijorat banklarining investitsion faolligini sezilarli darajada kengaytirish vazifalari belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodchi olimlar B.X. Xolmatov, Sh.Z. Abdullayeva, A. Fayzullayev va N. Toshmatovning ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozori rivojlanishining ayrim jihatlari yoritilgan. Shu bilan birga, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari samaradorligini kompleks baholash metodologiyasini yanada takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Xalqaro olimlardan F. Mishkin, H. Markowitz, E. Fama, R. Shiller va J.C. Hull asarlarida moliyaviy bozorlar, investitsion portfel nazariyasi hamda bank operatsiyalarining fundamental nazariy asoslari keng bayon etilgan.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning 2020–2025-yillardagi holatini empirik tahlil qilish hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy faraziyasi quyidagicha shakllantiriladi: O'zbekiston tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar samaradorligini oshirish uchun huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda Basel III standartlariga asoslangan risk-menejment tizimini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

**Tadqiqot dizayni va ma'lumotlar bazasi.** Tadqiqot 2020–2025-yillar oralig'ini qamrab oladi. Ushbu davrning tanlanishi COVID-19 pandemiyasi, 2022-yildagi geoiqtisodiy o'zgarishlar hamda 2022–2023-yillardagi inflyatsion bosim kabi muhim iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga olgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotda birlamchi va ikkilamchi ma'lumot manbalaridan foydalanildi. Birlamchi ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlar bazasi, tijorat banklarining xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tayyorlangan yillik moliyaviy hisobotlari hamda "Toshkent" Respublika fond birjasining savdo statistikasi tanlab olindi. Ikkilamchi ma'lumot manbalari sifatida Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining Global Financial Development Database ma'lumotlari, O'zbekiston kapital bozorini rivojlantirish bo'yicha vakolatli tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, BCBS va IOSCO xalqaro standartlaridan foydalanildi.

**Korrelatsion-regression tahlil.** Yalpi ichki mahsulot o'sishi va qimmatli qog'ozlar portfeli o'sishi o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash maqsadida Pearson korrelatsiya koeffitsiyenti qo'llanildi. Hisoblash quyidagi formula asosida amalga oshirildi:

$$r = \frac{\sum[(X_i - \bar{X})(Y_i - \bar{Y})]}{\sqrt{[\sum(X_i - \bar{X})^2 \times \sum(Y_i - \bar{Y})^2]}}$$

**Raqobat tahlili.** Bozor konsentratsiyasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi qo'llanildi:

$$HHI = \sum s_i^2,$$

bu yerda  $s_i$  — i-bankning bozordagi ulushini ifodalaydi. Shuningdek, banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida raqobat muhitini baholashda Porterning "Besh kuch" modelidan foydalanildi.

**Risk-tahlil.** Tijorat banklari investitsion portfelining foiz stavkalariga sezgirligini baholash uchun Macaulay duratsiyasi, likvidlik holatini aniqlash uchun esa LCR va NSFR koeffitsiyentlari hisoblandi. Qiyosiy tahlil jarayonida O'zbekiston ko'rsatkichlari MDH mamlakatlari hamda rivojlangan davlatlar tajribasi bilan solishtirildi.

**Tadqiqot cheklavlari.** Tadqiqot jarayonida ayrim tijorat banklari yillik hisobotlaridagi ma'lumotlar qamrovini yanada kengaytirish zarurati kuzatildi, OTC bozor savdolari bo'yicha statistik ma'lumotlarning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda derivativlar bozori rivojlanishining boshlang'ich bosqichda ekani ayrim xalqaro



ko'rsatkichlar bilan chuqur qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini chekladi. Shu bilan birga, mavjud rasmiy va ochiq ma'lumotlar asosida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar holatini kompleks baholash imkoniyati yaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

**Qimmatli qog'ozlar portfeli o'sish dinamikasi.** 2020–2025-yillarda O'zbekiston tijorat banklarining umumiy qimmatli qog'ozlar portfeli 8,2 trillion so'mdan 55,8 trillion so'mga yetib, 6,8 barobarga oshdi. Ushbu o'sish yalpi ichki mahsulot o'sishidan, ya'ni 4,6 barobarlik ko'rsatkichdan yuqori bo'lib, mamlakatda moliyaviy chuqurlashuv jarayoni faol kechayotganini ko'rsatadi.

Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r = 0,62$  ni tashkil etdi. Bu yalpi ichki mahsulot o'sishi va qimmatli qog'ozlar portfeli o'sishi o'rtasida o'rtacha kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini anglatadi.

Qimmatli qog'ozlar portfelinin yalpi ichki mahsulotga nisbati 2018-yildagi 2,9 foizdan 2025-yilda 9,2 foizga ko'tarildi. Bu ko'rsatkichning 3 barobarga oshgani tijorat banklarining kapital bozorida investitsion faolligi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Kapital yetarliligi koeffitsiyenti esa 16,2 foizdan 20,4 foizga oshib, Basel III standartlarida belgilangan minimal talab — 8 foiz hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talabi — 13 foizdan barqaror yuqori darajada shakllandi (1-jadval).

1-jadval  
O'zbekiston tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfeli va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi, 2020–2025-yillar<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Qimmatli qog'ozlar portfeli, trln so'm	8,2	12,4	19,4	28,7	42,1	55,8
Qimmatli qog'ozlar portfelinin aktivlarga nisbati, %	5,3	5,6	6,0	6,6	7,0	7,5
Qimmatli qog'ozlar portfelinin o'sishi, %	—	51,2	56,5	47,9	46,7	32,5
YalM o'sishi, %	1,9	7,4	5,7	6,0	5,5	6,1*
Kapital yetarliligi koeffitsiyenti, %	16,2	17,1	17,1	16,4	15,9	20,4

**Qimmatli qog'ozlar portfeli tarkibi.** 2025-yil III chorak holatiga ko'ra, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfeli quyidagicha shakllangan: davlat xazina majburiyatlari — 58,3 foiz, Markaziy bank qimmatli qog'ozlari — 22,7 foiz, korporativ obligatsiyalar — 11,4 foiz, aksiyalar va ulushlar — 7,6 foiz. Davlat xazina majburiyatlarining portfeldagi yuqori ulushi Basel III doirasidagi LCR standarti, xususan, yuqori likvidli aktivlar — HQLA Level 1 talabi hamda REPO operatsiyalari uchun garov vositasi sifatida foydalanish zaruriyati bilan izohlanadi.

Muhim tendensiyalardan biri shundaki, korporativ obligatsiyalar ulushi 2018-yildagi 6,8 foizdan 2025-yilda 11,4 foizga oshgan. Absolyut hajmda esa ushbu ko'rsatkich 11,4 barobarga ko'paygan. IFRS 9 standartiga to'liq o'tilishi, ya'ni 2021-yildan boshlab portfel sifatini baholash jarayonini yanada shaffoflashtirdi. ECL — kutilayotgan kredit zararlarini qoplash zaxirasi portfelning 0,51 foizini tashkil etmoqda. Portfelning o'rtacha duratsiyasi 2018-yildagi 1,8-yildan 2025-yilda 2,7-yilga oshgani foiz stavkasi riskini muntazam monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi.

**Broker-dilerlik va anderryayting faoliyati.** 2021–2025-yillarda broker-dilerlik faoliyati hajmi 6,6 barobarga oshdi. Ayniqsa, onlayn savdo ulushi 2019-yildagi 12,4 foizdan 2025-yilda 58,6 foizga yetgani banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida raqamli transformatsiyasi jadallashayotganini ko'rsatadi. Shu davrda individual investorlar soni 14 800 nafardan 128 000 nafarga yetib, 8,6 barobarga oshdi.

Bozor raqobati ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Xususan, Herfindahl–Hirschman indeksi aksiya savdosi segmentida 2 184 balldan 1 842 ballga pasayib, bozor konsentratsiyasi yuqori darajadan o'rtacha darajaga yaqinlashganini ko'rsatadi (2-jadval).

1 **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020–2025-yillardagi yillik hisobotlari asosida mualliflar tomonidan shakllantirilgan. **Izoh:** \* — 2025-yil III chorak ma'lumotlari.



2-jadval

Yirik tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ulushi, 2025-yil, %<sup>2</sup>

Banklar	Aksiya savdosi, %	Obligatsiya savdosi, %	REPO savdosi, %
Milliy bank	24,3	19,8	22,1
Xalq banki	18,7	16,4	19,3
Asaka bank	12,6	14,2	15,8
Kapitalbank	10,4	9,4	7,2
Hamkorbank	6,8	7,1	5,4
Boshqa banklar	27,2	33,1	30,2
TOP-3 banklar ulushi	55,6	50,4	57,2

Anderraying bozori 2019–2025-yillar davomida 8,1 barobarga o'sdi. Tijorat banklari jami emissiyalarda 62–75 foizlik yetakchi ulushni saqlab kelmoqda. 2024–2025-yillarda amalga oshirilgan yirik xalqaro joylashtirishlar, jumladan, UzNIF IPOsi — 603,6 mln AQSh dollari, LSE va RFB; SQBning birinchi AT1 obligatsiyalari — 300 mln AQSh dollari, LSE; NBuning dual-tranche evrobondlari — 418 mln AQSh dollari O'zbekiston bank sektorining xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvida muhim bosqich bo'ldi.

**Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar daromadliliigi.** 2021–2025-yillarda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalardan olingan daromadlar 2 854 mlrd so'mdan 12 304 mlrd so'mga yetib, 4,3 barobarga oshdi. Ularning umumiy daromadlardagi ulushi 11,2 foizdan 15,1 foizga ko'tarildi. Qimmatli qog'ozlar portfelining real rentabelligi, ya'ni inflyatsiyadan tozalangan daromadliliigi 0,4 foizdan 8,8 foizga oshdi. Bu esa ushbu ko'rsatkichning 22 barobarga yaxshilanganini ko'rsatadi. LCR koeffitsiyenti 124,6 foizdan 146,8 foizga, NSFR koeffitsiyenti esa 108,2 foizdan 124,6 foizga ko'tarildi. Mazkur holat stress-test ssenariylarida ham banklarning barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari kengayib borayotganini anglatadi.

**Asosiy topilmalarni talqin qilish.** Tadqiqot natijalari King va Levine tomonidan ilgari surilgan moliyaviy chuqurlashuv hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik nazariyasini O'zbekiston misolida empirik jihatdan tasdiqlaydi. Xususan, qimmatli qog'ozlar portfelining yalpi ichki mahsulotga nisbati 3 barobarga oshgani kapital taqsimoti samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentining  $r = 0,62$  darajasida shakllangani esa bozorning izchil rivojlanayotganini va kelgusida yanada chuqurlashish imkoniyatiga ega ekanini anglatadi. Rivojlangan bozorlarda ushbu ko'rsatkich odatda 0,8 dan yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Markowitzning zamonaviy portfel nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, O'zbekiston tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfeli diversifikatsiya salohiyatini yanada kengaytirish imkoniyatiga ega. Davlat xazina majburiyatlari ulushining 58,3 foizni tashkil etishi portfel tarkibida yuqori likvidli va nisbatan ishonchli instrumentlar ustuvor ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasida, jumladan, Germaniyada davlat xazina majburiyatlari ulushi 28–32 foiz, AQShda esa 22–25 foiz atrofida bo'lib, korporativ obligatsiyalar va aksiyalar ulushi nisbatan yuqori ekanini kuzatiladi. O'zbekiston sharoitida esa davlat xazina majburiyatlarining ustunligi kapital bozorining bosqichma-bosqich rivojlanayotgani va yuqori likvidli instrumentlarga bo'lgan ehtiyoj bilan izohlanadi.

Herfindahl–Hirschman indeksining 2 184 balldan 1 842 ballga pasayishi Porterning raqobat nazariyasi nuqtai nazaridan ijobiy o'zgarish sifatida baholanadi. Bu holat qimmatli qog'ozlar bozorida raqobat muhiti faollashib, bozor konsentratsiyasi o'rtacha darajaga yaqinlashayotganini ko'rsatadi. Xususiy banklar, jumladan, Kapitalbank va Hamkorbank raqamli platformalar orqali bozor ulushini oshirib bormoqda. Bu esa bank sektorida raqamli innovatsiyalar va yangi biznes modellarining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil (3-jadval)

3-jadval

O'zbekiston va qiyosiy mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori ko'rsatkichlari, 2025-yil<sup>3</sup>

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Qozog'iston	Polsha	Germaniya
Fond birjasi kapitalizatsiyasining YalMga nisbati, %	10,2	32,6	50,4	53,4
Banklar qimmatli qog'ozlar portfelining aktivlarga nisbati, %	7,5	9,4	14,8	17,8
Korporativ obligatsiyalarning YalMga nisbati, %	2,1	12,4	28,6	72,4
Individual investorlar soni, ming nafar	128	642	4 200	18 400
HHI, aksiya savdosi bo'yicha	1 842	2 108	1 420	980

2 **Manba:** "Toshkent" Respublika fond birjasi statistikasi asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

3 **Manba:** IMF Global Financial Development Database, 2025-yil; milliy fond birjalari statistikasi hamda mualliflar hisob-kitoblari asosida shakllantirilgan.



3-jadval O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish imkoniyatlarini aniq ko'rsatadi. Xususan, korporativ obligatsiyalar bozorining YalMga nisbati O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich Qozog'iston tajribasiga nisbatan yanada keng rivojlanish salohiyatiga ega, ya'ni 2,1 foizga nisbatan 12,4 foizni tashkil etadi. Individual investorlar soni bo'yicha ham O'zbekiston ko'rsatkichi Qozog'istonga nisbatan 5 barobar past bo'lib, mos ravishda 128 000 va 642 000 nafarni tashkil qiladi. Shu bilan birga, o'sish sur'atlari bo'yicha O'zbekiston mintaqadagi jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Qozog'iston tajribasida "Big Bang" islohot strategiyasi pensiya tizimini 5 yil ichida isloh qilish, institutsional investorlar bazasini shakllantirish hamda banklarning qimmatli qog'ozlar portfeli va YalM nisbati ko'rsatkichini 10 yil davomida 8 foizdan 28 foizgacha oshirish imkonini bergan. Polsha tajribasi esa xorijiy portfel investitsiyalarini jalb etishda IFRS asosidagi majburiy hisobot tizimiga o'tish muhim omil bo'lganini ko'rsatadi.

**Aniqlangan masalalar.** Tadqiqot jarayonida qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish bilan bog'liq bir qator tizimli masalalar aniqlandi. Birinchi masala — huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish zarurati bilan bog'liq. Xususan, ILMAning operatsional mustaqilligini kengaytirish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha qonunchilikni zamonaviy bozor talablariga moslashtirish hamda derivativlar bozori uchun huquqiy asoslarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi masala — institutsional investorlar bazasini kengaytirish zarurati bilan izohlanadi. Pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va investitsion fondlar aktivlari YalMning 3,2 foizini tashkil etadi. Qiyosiy tahlilga ko'ra, ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 28,6 foiz, Germaniyada esa 78,4 foizga teng. Bu esa O'zbekistonda institutsional investorlar salohiyatini kengaytirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Uchinchi masala — ikkilamchi bozor likvidligini oshirish bilan bog'liq. Korporativ obligatsiyalar ikkilamchi bozorida savdo hajmini kengaytirish, hisob-kitob infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda T+3 hisob-kitob siklidan zamonaviyroq T+1 tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bozor samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi masala — moliyaviy savodxonlik darajasini yanada oshirish zarurati bilan bog'liq. 2024-yilgi so'rovnoma natijalariga ko'ra, So'rovnoma natijalari aholining qimmatli qog'ozlar bo'yicha moliyaviy bilimlarini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa investorlar uchun moliyaviy bilimlarni oshirish, risklarni tushuntirish va investitsiya madaniyatini shakllantirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar va xalqaro tajriba tahlili asosida uchta asosiy yo'nalish bo'yicha kompleks tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Birinchi yo'nalish — institutsional islohotlar.** Ushbu yo'nalishda, birinchidan, ILMA vakolatlarini kengaytirish va uning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadga muvofiq. Bunda MAS va FCA tajribalaridan foydalanish mumkin. Ikkinchidan, barcha ochiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun IFRS asosidagi hisobotni majburiy joriy etish xorijiy portfel investitsiyalarini o'rta 18 foizga oshirish imkonini berishi mumkin. Uchinchidan, pensiya fondlari va investitsion fondlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish institutsional investorlar bozor hajmining 60–70 foizini shakllantirishi uchun zarur shart hisoblanadi. To'rtinchidan, yillik davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi hajmini oshirish hamda 3 oydan 10 yilgacha bo'lgan to'liq yield curve shakllantirish kapital bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Ikkinchi yo'nalish — raqamli modernizatsiya.** Ushbu yo'nalishda, birinchidan, Distributed Ledger Technology — DLT asosida kliring va hisob-kitob tizimini modernizatsiya qilish maqsadga muvofiq. Singapurning Project Guardian tajribasi bunday texnologiyalar xarajatlarni 65 foizgacha kamaytirish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Ikkinchidan, T+3 hisob-kitob siklidan T+1 tizimiga o'tish kontragent xavfini 60 foizgacha kamaytirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, FinTech regulatory sandbox mexanizmini joriy etish innovatsion moliyaviy xizmatlar rivojlanishini tezlashtiradi. Hozirgi kunda 58 mamlakatda faoliyat yuritayotgan sandboxlar 1 200 dan ortiq startapga xizmat qilgani ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. To'rtinchidan, MyID raqamli identifikatsiya tizimi bilan integratsiyalashgan mobil platforma orqali broker hisobvarag'ini 15 daqiqada ochish imkoniyatini yaratish individual investorlar faolligini oshirishga xizmat qiladi.

**Uchinchi yo'nalish — xalqaro risk-menejment standartlarini tatbiq etish.** Ushbu yo'nalishda, birinchidan, Basel III/IV standartlarini to'liq joriy etish, jumladan, 2026-yilga rejalashtirilgan tartiblarni bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq qilish zarur. Ikkinchidan, Makroprudensial nazorat kengashini tashkil etish va tizimli xavflarni monitoring qilish mexanizmini joriy etish moliya bozorining barqarorligini mustahkamlaydi. Uchinchidan, derivativlar bozorini rivojlantirish bo'yicha uch bosqichli strategiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq: 1-bosqich — 2026-yilda valyuta fyucherslari va forvardlarini muomalaga chiqarish; 2-bosqich — 2027-yilda tovar fyucherslarini joriy etish; 3-bosqich — 2028-yilda foiz stavkasi svoplari va CDS instrumentlarini bosqichma-bosqich amaliyotga kiritish. To'rtinchidan, IOSCO tamoyillariga to'liq muvofiqlashish va MSCI Frontier maqomini rasmiy olish O'zbekiston kapital bozorining xalqaro investorlarga ochiqligini oshiradi.

**Tavsiyalarning kutilayotgan natijalari.** King va Levine qonuniyatiga ko'ra, kapitallashuvning YalMga nisbati 10 foizga oshganda iqtisodiy o'sish o'rta 0,34 foizga ko'tariladi. Ushbu chora-tadbirlar 2030-yilga qadar qimmatli qog'ozlar bozori kapitalizatsiyasini YalMning 25–30 foiziga yetkazish hamda yiliga 2–3 mlrd AQSh dollari miqdorida qo'shimcha xorijiy portfel investitsiyalarini jalb etish imkonini berishi kutilmoqda.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar 2020–2025-yillarda sezilarli darajada rivojlanganini ko'rsatdi. Xususan, qimmatli qog'ozlar portfelining 6,8 barobarga, broker-dilerlik faoliyati hajmining 6,6 barobarga hamda individual investorlar sonining 8,6 barobarga oshgani O'zbekiston kapital bozorida ijobiy o'sish tendensiyalari shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Xalqaro taqqoslama tahlil O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida yanada keng rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, korporativ obligatsiyalar bozorining YaIMga nisbati Qozog'iston ko'rsatkichidan 6 barobar, Polsha ko'rsatkichidan esa 14 barobar past. Shu bois ikkilamchi bozor likvidligini oshirish, derivativlar bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish hamda institutsional investorlar bazasini kengaytirish kapital bozorining keyingi rivojlanish bosqichi uchun muhim ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan kompleks tavsiyalar — huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, raqamli modernizatsiyani jadallashtirish va xalqaro risk-menejment standartlarini amaliyotga tatbiq etish — izchil amalga oshirilgan taqdirda, O'zbekiston 2030-yilga qadar mintaqaning yetakchi moliyaviy markazlaridan biriga aylanish salohiyatiga ega.

Kelgusidagi tadqiqotlarda islom moliyasi vositalari, xususan, sukuk instrumentlarining O'zbekiston bank sektoriga integratsiyasi, sun'iy intellekt asosida investitsion portfel boshqaruvi samaradorligini baholash metodologiyasi hamda mintaqaviy kapital bozori integratsiyasining O'zbekiston iqtisodiy o'sishiga ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stiglitz, J.E. *Globalization and Its Discontents*. — New York: W.W. Norton, 2002. — 304 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-iyuldagi PF–5785-son Farmoni “Kapital bozorini rivojlantirish va qimmatli qog'ozlar muomalasini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”. — Toshkent, 2019. <https://lex.uz/uz/docs/-4482648>
3. Xolmatov, B.X. *Qimmatli qog'ozlar bozori nazariyasi va amaliyoti*. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2017. — 312 b.
4. Markowitz, H. Portfolio Selection // *Journal of Finance*. — 1952. — Vol. 7, No. 1. — P. 77–91.
5. International Monetary Fund. *Uzbekistan: Financial System Stability Assessment*. IMF Country Report No. 24/212. — Washington, D.C.: IMF, 2024. — 88 p.
6. King, R.G., Levine, R. Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right // *The Quarterly Journal of Economics*. — 1993. — Vol. 108, No. 3. — P. 717–737.
7. Bodie, Z., Kane, A., Marcus, A.J. *Investments*. 12th ed. — New York: McGraw-Hill, 2021. — 1056 p.
8. Porter, M.E. *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. — New York: Free Press, 1980. — 397 p.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Yillik hisobotlar, 2020–2025-yillar*. — Toshkent: O'zMB, 2025.
10. Basel Committee on Banking Supervision (BCBS). *Basel III Monitoring Report 2023*. — Basel: BIS, 2023. — 124 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>